



KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XVII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

SENTYABR, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XVII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 17-son (14-sentyabr, 2026-yil).– 132 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 11-sentyabr

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XVII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

IQTISODIYOT FANLARI

BANKLARDA OPERATSION RISKNI BAHOLASH VA BOSHQARISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'NALISHLARI

Muxitdinova Dilfuza Farxodovna

mustaqil izlanuvchi (PhD), Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

Email: dilfuzamukhitdinova@gmail.com

Tel: +998909920063

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu tezisda banklarda operatsion riskni baholash va boshqarish jarayonida uchraydigan asosiy metodologik, axborot, texnologik va tashkiliy muammolar tizimli ravishda tahlil qilingan. Operatsion hodisalarni to'liq identifikatsiya qilish, yo'qotishlar va "near miss" holatlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish, inson omili, IT va kiberxavflar, ichki nazorat sifati, risk-madaniyat hamda risklarning o'zaro bog'liqligini baholashdagi cheklovlar yoritilgan. Muammolarni bartaraf etish uchun dinamik KRI, ssenariy tahlili, stress-test, RCSA, hodisalar bazasi va operatsion barqarorlik tamoyillariga tayangan integratsiyalashgan boshqaruv mexanizmi taklif etiladi.

Kalit so'zlar: operatsion risk, risklarni baholash, risk-madaniyat, KRI, RCSA, ssenariy tahlili, stress-test, IT-risk, kiberxavf, operatsion barqarorlik.

PROBLEMS OF OPERATIONAL RISK ASSESSMENT AND MANAGEMENT IN BANKS AND DIRECTIONS FOR THEIR MITIGATION

Muxitdinova Dilfuza

Independent researcher (PhD), Tashkent Kimyo International University

Tashkent, Uzbekistan

Annotation. The thesis systematizes key methodological, data, technological and organizational problems of operational risk assessment and management in banks. It focuses on incomplete event identification, data quality, human factors, IT and cyber risks, internal controls, risk culture and interdependencies. An integrated framework based on dynamic key risk indicators, RCSA, loss and near-miss databases, scenario analysis, stress testing and operational resilience is proposed.

Keywords: operational risk, risk assessment, risk culture, KRI, RCSA, scenario analysis, stress testing, IT risk, cyber risk, operational resilience.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i17/n06>

Bank xizmatlarining raqamlashtirilishi, masofaviy kanallarning kengayishi, operatsiyalar hajmi va tezligining oshishi operatsion riskning bank faoliyatidagi rolini yanada kuchaytirmoqda. Operatsion risk kredit yoki bozor riskidan farqli ravishda alohida moliyaviy instrument bilan cheklanmaydi; u xodimlar, ichki jarayonlar, axborot tizimlari va tashqi hodisalar orqali bankning deyarli barcha faoliyat yo'nalishlarida namoyon bo'ladi. Shu sababli uni faqat sodir bo'lgan zararlarni qayd etish orqali emas, balki zaifliklarni oldindan aniqlash, nazoratlar samaradorligini baholash va kritik operatsiyalar uzluksizligini ta'minlash bilan bog'liq yaxlit tizim sifatida boshqarish talab etiladi [1; 2].

Operatsion risklarni boshqarish va baholash masalalari qator xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keng yoritilgan. Xususan, Paola Leone, Pasqualina Porretta va Mario Vellella tomonidan taklif etilgan integratsiyalashgan risklarni boshqarish yondashuvida operatsion risk bankning umumiy risk-menejment tizimining ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

Mazkur yondashuv doirasida risklarni aniqlash, baholash va monitoring qilish jarayonlarini yagona metodologik asosda tashkil etish nazarda tutiladi. Mualliflar operatsion risklarning yuzaga kelish sabablarini bankning strategik qarorlari, ichki biznes jarayonlari hamda texnologik infratuzilmasi bilan uzviy bog'liq holda tahlil qiladilar. Bunda operatsion riskni alohida risk turi sifatida baholashdan ko'ra, uning boshqa bank risklari bilan o'zaro bog'liqligi va ta'sirini hisobga olgan holda umumbank miqyosida boshqarishga alohida e'tibor qaratiladi [3]. Shuningdek, samarali korporativ boshqaruv va risk-appetitni belgilash mazkur yondashuvning muhim elementlari sifatida e'tirof etiladi. Natijada operatsion risklarning yuzaga kelish omillarini alohida holatlar kesimida emas, balki bank faoliyatining barcha yo'nalishlarini qamrab oluvchi kompleks tizim doirasida aniqlash va baholash imkoniyati yaratiladi.

Ariane Chapelle esa operatsion risklarni boshqarish masalasiga amaliy yondashib, ularning yuzaga kelish manbalari va sabablarini tizimli ravishda tahlil qiladi. Muallif inson omili bilan bog'liq xatolar, ichki firibgarlik holatlari, axborot texnologiyalari tizimidagi nosozliklar hamda belgilangan jarayon va reglamentlarga rioya etilmasligini operatsion risklarning asosiy manbalari sifatida ko'rsatadi. Chapelle operatsion risklarni samarali boshqarishda sodir bo'lgan hodisalar va yo'qotishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni muntazam yig'ish, tizimlashtirish hamda insidentlarni hujjatlashtirishga alohida ahamiyat beradi. Amaliy holatlar tahliliga asoslanib, operatsion yo'qotishlarning yuzaga kelishi ko'p hollarda mavjud nazorat mexanizmlarining yetarli darajada ishlamasligi yoki nazorat jarayonlaridagi kamchiliklar bilan bog'liqligini asoslaydi [4]. Shu nuqtai nazardan, muallif operatsion risklarni faqat sodir bo'lgan yo'qotishlarni hisobga olish orqali boshqarish yetarli emasligini, balki ularni doimiy monitoring qilish va oldindan aniqlashga yo'naltirilgan proaktiv nazorat mexanizmlarini shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi. Mazkur yondashuv operatsion risklarning kelib chiqish sabablarini amaliy jihatdan aniqlash hamda ularning oldini olishga qaratilgan boshqaruv choralari ishlab chiqishga imkon beradi.

Tadqiqot materiallari tahlili banklarda operatsion riskni baholashning birinchi muammosi risk hodisalarini to'liq identifikatsiya qilish bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Amaliyotda yirik yo'qotishlar qayd etilishi mumkin, biroq kichik, takrorlanuvchi xatolar, nazoratdagi kamchiliklar va zarar yuz bermagan, ammo zarar ehtimoli mavjud bo'lgan "near miss" holatlari yagona bazaga kiritilmasligi mumkin. Natijada risk manbalari bo'yicha tarixiy qatorlar to'liq shakllanmaydi, hodisalar chastotasi va ta'sirini haqqoniy baholash qiyinlashadi hamda boshqaruv qarorlari to'liq bo'lmagan axborotga tayanadi.

Ikkinchi muammo ma'lumotlarning sifati va taqqoslanuvchanligidir. Turli bo'linmalarda hodisalarni turlicha tasniflash, zarar miqdorini aniqlash mezonlarining farqlanishi va sabab-oqibat bog'liqligining yetarli hujjatlashtirilmasligi bank miqyosida yagona risk profilini shakllantirishni murakkablashtiradi. Shu bois operatsion hodisalar reyestrda hodisa sanasi, biznes-jarayon, sabab, risk toifasi, yalpi zarar, qoplangan summa, sof zarar, nazoratdagi kamchilik, tuzatish chorasi va mas'ul shaxs kabi minimal atributlarni standartlashtirish maqsadga muvofiq.

Uchinchi muammo operatsion riskni baholashda statik va retrospektiv yondashuvning ustunligidir. Faqat o'tgan davrdagi hodisalar soni yoki zarar summasiga tayanish yangi texnologiyalar, jarayonlar o'zgarishi, tashqi provayderlarga bog'liqlik va kiberxavflar kabi tez o'zgaruvchi omillarni yetarli darajada aks ettirmaydi. Ayniqsa, kam ehtimolli, biroq yuqori

ta'sirli hodisalarni baholashda ssenariy tahlili va stress-testlardan foydalanish zarur. Bunda ssenariylar formal mashq emas, balki kapital, biznes uzluksizligi, IT-arxitektura va resurslar taqsimoti bo'yicha qarorlar bilan bog'lanishi lozim.

To'rtinchi muammo inson omili va risk-madaniyat bilan bog'liq. Xodim xatosi, vakolatlarining noto'g'ri taqsimlanishi, ichki tartiblarga rioya qilmaslik yoki hodisani yashirishga moyillik risk darajasini oshiradi. Bazel qo'mitasi ham direktorlar kengashi va yuqori rahbariyat kuchli risk-madaniyatni shakllantirishi, mas'uliyatli xulq-atvor standartlarini belgilashi hamda xodimlarning risk va etika bo'yicha bilimlarini rivojlantirishi zarurligini ta'kidlaydi [1]. Shuning uchun operatsion risk faqat risk-menejment bo'linmasining vazifasi emas, balki biznes bo'linmalari va nazorat funksiyalarining umumiy mas'uliyati sifatida qaralishi kerak.


Beshinchi muammo raqamli transformatsiya bilan bog'liq IT va kiberxavflarning kuchayishidir. Axborot tizimidagi nosozlik, noto'g'ri konfiguratsiya, ma'lumotlarning buzilishi, kiberhujum yoki tashqi texnologik provayderdagi uzilish bir vaqtning o'zida moliyaviy yo'qotish, xizmat uzilishi va reputatsion zarar keltirib chiqarishi mumkin. Bazel qo'mitasining operatsion barqarorlik tamoyillarida kritik operatsiyalar, biznes uzluksizligi, uchinchi tomonlarga bog'liqlik, hodisalarni boshqarish va barqaror IT infratuzilmasi o'zaro bog'liq elementlar sifatida ko'riladi [2].

1-jadval.

Banklarda operatsion riskni baholash va boshqarishdagi asosiy muammolar

Muammo	Asosiy oqibat	Taklif etiladigan boshqaruv vositasi
Hodisalarni to'liq qayd etmaslik	Risk profili va yo'qotishlar kam baholanadi	Yagona hodisalar va near-miss bazasi
Ma'lumotlar sifati pastligi	Tahlil va taqqoslash ishonchliligi pasayadi	Yagona tasnif, majburiy atributlar va data-quality nazorati
Statik baholash	Yangi va kechikib namoyon bo'ladigan risklar ko'rinmaydi	Dinamik KRI, trend va ssenariy tahlili
Inson omili va risk-madaniyat	Takroriy xatolar va nazorat buzilishlari	RCSA, trening, mas'uliyat va eskalatsiya
IT va kiberxavflar	Kritik xizmatlar uzilishi va reputatsion zarar	IT nazorati, BCP/DR, test va incident management
Risklarning parchalanib boshqarilishi	O'zaro bog'liq ta'sirlar e'tibordan chetda qoladi	Integratsiyalashgan ORM va operatsion barqarorlik

Jadvaldan ko'rinadiki, aniqlangan muammolar bir-biridan ajralgan holda emas, balki o'zaro bog'liq tarzda shakllanadi. Masalan, ma'lumotlar sifati past bo'lsa, KRI va ssenariy tahlilining aniqligi pasayadi; risk-madaniyat sust bo'lsa, hodisalar bazasi to'liq shakllanmaydi; IT nazoratlaridagi zaiflik esa inson xatolari bilan birlashib kritik xizmatlar uzilishiga olib kelishi mumkin. Demak, samarali boshqaruv alohida nazorat choralarini emas, o'zaro bog'langan mexanizmlarni talab qiladi.



1-rasm. Operatsion riskni proaktiv boshqarishning taklif etilayotgan mantiqiy zanjiri

Taklif etilayotgan yondashuvning mohiyati riskni hodisa sodir bo'lgandan keyin qayd etishdan oldindan ogohlantirishga o'tishdan iborat. Birinchi bosqichda jarayon, xodim, tizim va tashqi omillar kesimida risk manbalari aniqlanadi. Keyin RCSA, tarixiy yo'qotishlar, near-miss holatlari, KRI va ssenariylar asosida ehtimollik hamda ta'sir baholanadi so'ng erta ogohlantirish tizimlari sozlanadi. Natijaga ko'ra nazoratni kuchaytirish, jarayonni qayta loyihalash, sug'urtalash yoki riskni qabul qilish kabi choralar tanlanadi. Monitoring bosqichida KRI chegaralari va nazorat samaradorligi kuzatilib, cheklov buzilganda eskalatsiya mexanizmi ishga tushiriladi.

Mazkur mexanizm dinamik KRI alohida ahamiyatga ega. Hodisalar soni, tizim uzilishlari davomiyligi, muvaffaqiyatsiz tranzaksiyalar ulushi, mijozlar shikoyatlari, qo'lda bajariladigan operatsiyalar, xodimlar almashinuvi yoki kritik nazoratlarning buzilishi kabi indikatorlar vaqt qatori bo'yicha kuzatilsa, riskning yashirin o'sish tendensiyasini zarar yuz berishidan oldin aniqlash mumkin. Shu tariqa risk-menejment reaktiv modeldan proaktiv modelga o'tadi.

Shuningdek, operatsion riskni strategik boshqaruv bilan bog'lash zarur. Yangi mahsulot, yangi axborot tizimi, autsorsing yoki muhim jarayon o'zgarishidan oldin risk bahosi o'tkazilishi, kritik operatsiyalar uchun uzilishlarga chidamlilik darajasi va tiklanish imkoniyatlari aniqlanishi lozim. Operatsion barqarorlik nuqtayi nazaridan bank barcha risklarni to'liq bartaraf eta olmaydi, biroq jiddiy uzilish sharoitida kritik xizmatlarni davom ettirish, moslashish va tiklanish qobiliyatini rivojlantirishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, banklarda operatsion riskni baholash va boshqarishdagi asosiy muammolar hodisalarni to'liq identifikatsiya qilmaslik, ma'lumotlar bazasining yetarli shakllanmaganligi, statik baholash, risk-madaniyatning sustligi, IT va kiberxavflar hamda risklarning o'zaro bog'liqligini yetarli hisobga olmaslik bilan izohlanadi. Ularni bartaraf etish uchun yagona hodisalar bazasi, standart tasnif, RCSA, dinamik KRI, ssenariy va stress-testlar, BCP/DR hamda operatsion barqarorlik tamoyillarini bir tizimda uyg'unlashtirish maqsadga muvofiq [5]. Bunday yondashuv boshqaruv qarorlarining axborot bazasini yaxshilaydi, risklarni erta aniqlash imkonini kengaytiradi va bankning uzoq muddatli barqarorligini mustahkamlaydi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Basel Committee on Banking Supervision. Revisions to the Principles for the Sound Management of Operational Risk. Bank for International Settlements, March 2021.
2. Basel Committee on Banking Supervision. Principles for Operational Resilience. Bank for International Settlements, March 2021.
3. Paola Leone & Pasqualina Porretta & Mario Vellella (ed.), Measuring and Managing Operational Risk, chapter 0, pages 25–93, Palgrave Macmillan.
4. Ariane Chapelle's Operational Risk Management: Best Practices in the Financial Services Industry has been named Book of the Year by the OpRisk Awards 2020.
5. Basel Committee on Banking Supervision. Operational risk and resilience: Consolidated Guidelines, ORR10–ORR20. Bank for International Settlements, 2026.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XVII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, sentyabr

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.

XVII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.

2-jild, 17-son (14-sentyabr, 2026-yil). – 132 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 11-sentyabr.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.